

## SANOAT KORXONALARINING FOYDA SOLIG'I HISOBIDA CHEGIRILMAYDIGAN XARAJATLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

*Yunusov Jasur Nuritdinovich1*

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi*

*ORCID 0009-0003-9031-5822*

*jasuryunusov@mail.ru*

## SPECIFIC CHARACTERISTICS OF NON-DEDUCTIBLE EXPENSES IN CORPORATE INCOME TAX ACCOUNTING OF INDUSTRIAL ENTERPRISES

*Yunusov Jasur Nuritdinovich*

*Independent researcher of Tashkent State University of Economics*

*ORCID 0009-0003-9031-5822*

*jasuryunusov@mail.ru*

**Annotatsiya.** Foyda solig'i sanoat korxonalarining moliyaviy barqarorligi va investitsion muhitini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Foyda solig'i hisobining eng murakkab va bahsli elementlaridan biri bu — **chegirilmaydigan xarajatlarni** hisobga olish masalasi bo'lib, ular bevosita soliq solinadigan foyda miqdoriga hamda korxonaning umumiy soliq yukiga ta'sir ko'rsatadi. Mazkur maqolada sanoat korxonalarida foyda solig'ini hisoblash jarayonida chegirilmaydigan xarajatlarning o'ziga xos xususiyatlari, xususan ularning iqtisodiy mohiyati, tasnifi va moliyaviy natijalarga ta'siri chuqur tahlil qilinadi.

Tadqiqotning maqsadi chegirilmaydigan xarajatlarning mazmun-mohiyatini o'rganish, ularning ajralib turuvchi belgilarini aniqlash hamda sanoat korxonalarida foyda solig'i hisobidagi rolini baholashdan iborat. Tadqiqot sanoat korxonalariga taalluqli bo'lgan buxgalteriya hisobi me'yorlari, soliq qonunchiligi va moliyaviy hisobot amaliyotining sifat jihatdan tahliliga asoslangan. Chegiriladigan va chegirilmaydigan xarajatlar o'rtasidagi farqlarni aniqlash hamda ularning soliq

maqsadlarida tan olinishi yoki tan olinmasligiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillarni belgilashda solishtirma tahlil va mantiqiy umumlashtirish usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, chegirilmaydigan xarajatlar asosan qonunchilikda belgilangan cheklovlar, hujjatlarning yetarli darajada rasmiylashtirilmaganligi, iqtisodiy asoslanganlik talablariga rioya qilinmasligi hamda soliq qoidalarida nazarda tutilgan limitlar tufayli vujudga keladi. Aniqlanishicha, bunday xarajatlar sanoat korxonalarida soliq solinadigan bazani sezilarli darajada oshirib, foyda solig'i majburiyatining ko'payishiga olib keladi. Shuningdek, moliyaviy hisob va soliq hisobi tamoyillari o'rtasidagi aniq muvofiqlikning yetishmasligi xarajatlarni tan olishda nomuvofiqliklarga sabab bo'layotgani aniqlandi.

Maqolada chegirilmaydigan xarajatlarni samarali boshqarish uchun ichki nazorat mexanizmlarini takomillashtirish, hisob siyosatini aniqlashtirish va soliq qonunchiligidagi o'zgarishlarni doimiy monitoring qilib borish kerakligi haqidagi



xulosaga kelingan. Tadqiqot natijalari sanoat korxonalarida soliq samaradorligi va shaffoflikni oshirishga intiluvchi buxgalterlar, moliyaviy menejerlar va soliq siyosatini shakllantiruvchi subyektlar uchun amaliy ahamiyatga ega.

**Kalit soʻzlar:** foyda soligʻi, chegirilmaydigan xarajatlar, soliq hisobi, sanoat korxonalari, soliq solinadigan foyda.

**Abstract.** Corporate income tax plays a crucial role in shaping the financial stability and investment environment of industrial enterprises. One of the most complex and controversial elements of corporate income tax accounting is the treatment of non-deductible expenses, as they directly affect the taxable profit and the overall tax burden of an enterprise. This article provides an in-depth analysis of the distinguishing features of non-deductible expenses in the process of calculating corporate income tax at industrial enterprises, with particular attention to their economic substance, classification, and impact on financial results.

The purpose of the study is to examine the nature and essence of non-deductible expenses, to identify their distinctive characteristics, and to assess their role in corporate income tax accounting of industrial enterprises. The research is based on a qualitative analysis of accounting standards, tax legislation, and financial reporting practices applicable to industrial enterprises. Comparative analysis and logical generalization methods were employed to identify the differences between deductible and non-deductible expenses, as well as to determine the key factors influencing their recognition or non-recognition for tax purposes.

The findings of the study indicate that non-deductible expenses primarily arise due to legislative restrictions, insufficient or

improper documentation, non-compliance with economic justification requirements, and the application of limits established by tax regulations. It was determined that such expenses significantly increase the taxable base of industrial enterprises, leading to a higher corporate income tax liability. In addition, the lack of clear alignment between financial accounting principles and tax accounting rules was found to cause inconsistencies in expense recognition.

The article concludes that effective management of non-deductible expenses requires the improvement of internal control mechanisms, clarification of accounting policies, and continuous monitoring of changes in tax legislation. The research findings are of practical significance for accountants, financial managers, and policymakers seeking to enhance tax efficiency and transparency in industrial enterprises.

**Keywords:** corporate income tax, non-deductible expenses, tax accounting, industrial enterprises, taxable profit.

**Kirish.** Foyda soligʻi davlat byudjeti daromadlarining asosiy manbalaridan biri boʻlib, fiskal siyosatning muhim elementi hisoblanadi. Sanoat korxonalarida ishlab chiqarish tannarxi va operatsion xarajatlar hajmi yuqori boʻlganligi sababli, xarajatlarni toʻgʻri tasniflash va hisobga olish soliq solinadigan foydani aniqlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Mazkur jarayonda eng murakkab masalalardan biri — amaldagi soliq qonunchiligiga muvofiq chegirib tashlanmaydigan xarajatlarni aniqlashdir.

Ilgari oʻtkazilgan tadqiqotlarda moliyaviy hisob standartlari va soliq hisobi qoidalari oʻrtasidagi qarama-qarshilik ayniqsa xarajatlarni tan olish masalasida kuchayib borayotgani taʼkidlangan. Ilmiy adabiyotlarda

chegirilmaydigan xarajatlar ko'pincha normativ cheklovlar, hujjatlarning yetishmasligi yoki iqtisodiy jihatdan asoslanmagan xarajatlar natijasida yuzaga kelishi qayd etiladi. Shunga qaramay, foyda solig'i bo'yicha keng qamrovli tadqiqotlar mavjud bo'lsa-da, sanoat korxonalarida chegirilmaydigan xarajatlarning o'ziga xos xususiyatlari yetarli darajada tizimlashtirilmagan.

Mazkur tadqiqot aynan shu bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan bo'lib, sanoat sohasiga alohida e'tibor qaratgan holda foyda solig'i hisobida chegirilmaydigan xarajatlarning mohiyati, sabablari va oqibatlarini chuqur tahlil qilishni maqsad qilib qo'yadi.

#### ***Adabiyotlar sharhi va metodologiya.***

Tadqiqot foyda solig'i hisobiga oid soliq qonunchiligi, buxgalteriya hisobi standartlari hamda uslubiy ko'rsatmalarni tahliliy o'rganishga asoslangan. Tadqiqotda sifat tahlili, solishtirma tahlil, sintez va mantiqiy xulosa chiqarish usullari qo'llanildi. Sanoat korxonalarining moliyaviy hisobotlari hamda amaliy hisob tajribasi o'rganilib, soliq hisobida uchraydigan tipik chegirilmaydigan xarajatlar va ularning hisobga olinishi tahlil qilindi.

***Natijalar.*** O'tkazilgan tahlil natijalariga ko'ra, sanoat korxonalarida chegirilmaydigan xarajatlarga asosan jarimalar va penya, me'yorlardan ortiq vakillik xarajatlari, hujjatlashtirilmagan xarajatlar hamda daromad olish bilan bog'liq bo'lmagan sarf-xarajatlar kiradi. Ushbu xarajatlar buxgalteriya hisobida foydani kamaytirsa-da, soliq hisobida soliq bazasini kamaytirmaydi. Natijada, agar ular samarali boshqarilmasa, samarali soliq stavkalariga salbiy ta'sir ko'rsatib, moliyaviy ko'rsatkichlarning buzilishiga olib keladi.

Tadqiqot natijalari avvalgi ilmiy ishlar bilan umumiy jihatlarga ega bo'lib,

chegirilmaydigan xarajatlarning soliq samaradorligiga salbiy ta'sirini tasdiqlaydi. Sanoat korxonalarida ishlab chiqarish hajmi va qat'iy nazorat mexanizmlari mavjudligi ushbu xarajatlarning moliyaviy oqibatlarini yanada kuchaytiradi. Moliyaviy hisob va soliq hisobi o'rtasidagi muvofiqlikning yetarli emasligi doimiy soliq tafovutlari yuzaga kelishiga olib keladi. Soliq maqsadlarida xarajatlar ikki turga bo'linadi:

- Chegiriladigan xarajatlar;
- Chegirilmaydigan xarajatlar.

Chegirilmaydigan xarajatlar yuqorida ko'rganimizdek foyda solig' bazasini hisoblashda soliq solinadigan bazadan chegirilmaydigan xarajatlardir. Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotda soliq solingunga qadar foyda hisoblab topiladi va chegirilmaydigan xarajatlar soliq to'langunga qadar aniqlangan foydaga qaytarib qo'shiladi va olingan natija foyda solig'i bazasini aniqlaydi.

O'zbekiston Respublikasi soliq kodeksining 305-moddasida yuridik shaxslarning soliq bazasini aniqlashda korxonalarining jami daromadidan daromad olish bilan bog'liq barcha xarajatlar chegirib tashlanadi, bundan chegirib tashlanmaydigan xarajatlar mustasno deb ko'rsatilgan. Ya'ni soliq bazasini aniqlash quyidagi formula asosida hisoblanadi deb ko'rsatishimiz mumkin:

Jami daromadlar - Jami xarajatlar +  
Chegirilmaydigan xarajatlar = Soliq solinadigan baza.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi va sanoat korxonalarining amaliy ma'lumotlari asosida chegirilmaydigan xarajatlar quyidagi toifalarga bo'linadi:

**Chegirilmaydigan xarajatlar turlari**

<b>T/R</b>	<b>Xarajat turi</b>	<b>Tavsifi</b>	<b>Soliq hisobi (Soliq solinadigan bazadan)</b>
1	Soliq qonunchiligiga asosan ruxsat berilgan me`yordan ortiqcha xarajatlar	Moddiy qimmatliklarning tabiiy kamayishi normalaridan ortiqcha tovarlar yo`qolishi. Qonunchilikda nazarda tutilgan normalardan ortiqcha tarzda atrof-muhitni ifloslantirganlik va chiqindilar joylashtirganlik uchun kompensatsiya to`lovlari. Belgilangan limitdan oshgan mehmondo`stlik xarajatlari.	Qisman/to`liq chegirilmaydi
2	Moddiy qiymatliklardagi yo`qotishlar	Mol-mulk narxining pasayish (qadrsizlanish) summalari. Tovar-moddiy qimmatliklarni yaroqsizligi sababli hisobdan chiqarishdan ko`rilgan zararlar (favqulodda holatlar sababli yuzaga kelgan zararlar bundan mustasno).	Chegirilmaydi
3	Hujjatsiz chiqimlar	Birlamchi hujjatlar bilan tasdiqlanmagan chiqimlar.	Chegirilmaydi
4	Soliq maqsadlarida tan olinmaydigan amortizatsiya	Noto`g`ri usul bilan soliq qonunchiligida ruxsat berilgandan oshiqcha hisoblangan amortizatsiya.	Qisman chegirilmaydi
5	Noishlab chiqarish xarajatlari	Daromad olish bilan bog`liq bo`lmagan xarajatlar. Soliq to`lovchining tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog`liq bo`lmagan tadbirlarga doir xarajatlari.	Chegirilmaydi
6	Xayriya va ijtimoiy xarajatlar	Qonunda belgilangan yo`nalishlardan tashqari joylarga qilingan xayriya xarajatlari. Kasaba uyushmalari qo`mitalariga ko`rsatilgan yordam.	Chegirilmaydi
7	Ba`zi soliq to`lovlari	Boshqa shaxslar uchun to`langan soliqlar. Soliq tekshiruvlari natijalari bo`yicha qo`shimcha hisoblangan soliqlar va yig`imlar.	Chegirilmaydi
8	Jarima va penya	Soliq, bojxona, mehnat yoki ekologiya organlari tomonidan qo`llanilgan sanksiyalar. Xo`jalik shartnomalari shartlarini buzganlik uchun to`langan yoki tan olingan jarimalar, penyalar.	Chegirilmaydi

Jadvaldan quyidagi tahliliy natija kelib chiqadi: O'zbekistonda soliq bazasini hisoblashda xarajatlarning chegirilishi buxgalteriya hisobi prinsiplariga emas, balki **soliq qonunchiligiga qat'iy rioya qilish**, xarajatlarni to'liq va to'g'ri hujjatlashtirish hamda iqtisodiy asoslanganlik bilan belgilanadi.

O'zbekiston respublikasi soliq kodeksining 317 moddasida foyda solig'i bazasini aniqlash maqsadida chegirilib tashlanmaydigan xarajatlar ro'yxati keltirilgan. Sanoat korxonalarida buxgalterlar, moliyaviy menejerlar va soliq menejerlari tomonidan bu xarajalar turlari chuqur o'rganilishi va o'z korxonasi xususiyatidan kelib chiqqan holda tahlil qilinishi tegishli sanoat korxonasining soliq siyosatini to'g'ri va mavjud qonunchilik talablariga mos ravishda shakllantirilishiga yordam beradi.

**Munozara.** Soliq bazasini hisoblash va chegirilmaydigan xarajatlarning soliq bazasiga ta'sirini quyida ko'rsatilgan misolda ko'rib chiqamiz.

Shartlar:

- Soliqdan solingunga qadar aniqlangan foyda - **1 350 000 000 so'm;**
- Buxgalteriya hisobi bo'yicha amalga oshirilgan jami xarajatlar – **380 000 000 so'm;**
- Chegirilmaydigan xarajatlar – **180 000 000 so'm;**
- Foyda solig'i stavkasi: **15%**

Hisob-kitob:

Ko'rsatkich	Summa (so'm)
-------------	--------------

Soliqdan solingunga qadar foyda	1 350 000 000
Chegirilmaydigan xarajatlar qo'shiladi	180 000 000
Soliq solinadigan baza	1 530 000 000
Soliq stavkasi	15%
Soliq summasi	2290 000

Chegirilmaydigan xarajatsiz foyda solig'i summasi 202 505 000 so'm (1 350 000 000\*15%).

Tadqiqot, shuningdek, chegirilmaydigan xarajatlarning foyda solig'ining samarali stavkasiga ta'sirini ham tahlil qildi.

Tadqiqot natijalari avvalgi ilmiy ishlar bilan mos kelib, chegirilmaydigan xarajatlarning soliq samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. Ushbu tadqiqot sanoat korxonalariga xos bo'lgan tarmoq xususiyatlarini ochib berishi bilan ajralib turadi, chunki yirik hajmdagi operatsiyalar ushbu xarajatlarning moliyaviy oqibatlarini kuchaytiradi. Moliyaviy hisob va soliq hisobi o'rtasidagi muvofiqlikning yetarli emasligi asosiy muammolardan biri sifatida qolmoqda.

Xulosa. Chegirilmaydigan xarajatlar sanoat korxonalarida foyda solig'i hisobining muhim omili hisoblanadi.

Qonunchilik cheklovlari va hujjatlashtirishdagi muammolar xarajatlarni chegirilmaydigan xarajatlar sifatida tasniflashning asosiy omilidir.

Doimiy monitoring, ichki nazorat va hisob siyosatini doimiy takomillashtirib borish soliq tavakkalchiliklarini nisbatan yengillashtirishga yordam beradi.

Sanoat korxonalarini uchun har bir sohaning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda sanoat korxonasi tomonidan soliq siyosatini to'g'ri ishlab chiqarilishi foyda solig'ini to'g'ri rejalashtirishga yordam beradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi. (2019). Soliq kodeksi (O'RQ-622-son). <https://lex.uz/docs/4691079>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2018). Soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to'g'risida (PF-5590-son). <https://lex.uz>
3. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini hisoblash va to'lash bo'yicha uslubiy tavsiyalar. – T.: «Norma».
4. A.A. Vahobov, A.S. Jo'rayev Soliqlar va soliqqa tortish, Sharq nashriyoti, Toshkent 2009.
5. Abdurahmonov O. Xorijiy mamlakatlarda soliq tizimlari. O'quv qo'llanmasi. – T.: TDIU nashr., 2003.
6. O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standartlari.
7. Jo'rayev A., Meyliyev O., Safarov G. Soliq nazariyasi — T.: TMI, 2004.
8. Abdullayev S.A. Soliq tizimi va soliq siyosati. – Toshkent: Iqtisod–Moliya, 2021.
9. Zaynalov J.R., Abdulkayeva Sh.M. Foyda solig'ining iqtisodiy mohiyati va uning O'zbekiston Respublikasi soliq tizimidagi o'rni. – Zenodo, 2024.
10. Yunusov J.N., Raximov M.Yu. O'zbekistonda foyda solig'i tizimining shakllanishi va tarixiy bosqichlari. – InterFinance, 2025.
11. Ismaylov S.I., Qulmatova D.H. O'zbekistonda foyda solig'ini hisoblash usullari. – Tadqiqotlar.uz, 2024.
12. Shirinov S. Foyda solig'i tushumi va uning O'zbekiston soliq-budjet tizimidagi ahamiyati. – Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot, 2023.
13. Foyda solig'i O'zbekistonda: hisob-kitob, soliq stavkalari. – buxgalter.uz, 2026.
14. Foyda solig'i hisobotida daromadlar va xarajatlar to'g'ri aks ettirilishi masalalari. – O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi axboroti.
15. OECD. (2022). *Corporate income tax systems: Policy analysis*. OECD Publishing.
16. Smith, J. A., & Brown, L. M. (2021). Tax accounting challenges in industrial enterprises. *Journal of Accounting and Taxation*, 13(4), 215–228.
17. Turner, R. (2020). Differences between financial and tax accounting of expenses. *International Journal of Economics and Finance*, 12(6), 45–53.
18. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi. (2025). Yirik soliq to'lovchilar ro'yxati va ularning byudjetga to'lovlari bo'yicha ochiq ma'lumotlar (2015–2023 yillar). <https://soliq.uz>
19. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi. (2025). O'zbekiston Respublikasi davlat budjeti va soliq tushumlari bo'yicha yillik hisobotlar (1991–2023 yillar). <https://soliq.uz>
20. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi. (2022). Foyda solig'i islohotlari: tahlil va prognozlar. Review.uz. <https://review.uz>
21. Pardaev, M. Q., & Murodova, N. A. (2019). O'zbekiston soliq tizimi va uni isloh qilish yo'nalishlari. *Milliy Iqtisodiyot va Xalqaro Aloqalar*, 4(3), 13–19.
22. Qodirov, A. R., & Sattorov, I. B. (2020). Soliq va soliqqa tortish: Nazariya va amaliyot. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.



23. Turaev, D. (2021). Foyda solig'i stavkalarining evolyutsiyasi va korxonalariga ta'siri. *Iqtisodiyot va Innovatsion Texnologiyalar*, (6), 24–30.
24. Djuraev, T. A., Saidov, R. M., & Rahimov, S. R. (2018). O'zbekiston soliq tizimining shakllanishi va iqtisodiy samaradorligi. *Iqtisodiyot va moliya*, 5(2), 14–21.
25. Panskov, V. G., & Khoroshilov, L. I. (2004). *Nalogovaya sistema Rossii: Uchebnik*. Moskva: Finansy i Statistika.
26. Устигнеев Н.Г., Дмитриев Д.Б. *Налоги и налогообложение*, Феникс, 2004г.